



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

HOZIRGI KUNDA ZAMONAVIY MEHNAT BOZORIDA YOSHLAR BANDLIGI STATISTIKASI

Razikova Gulmira Sharifovna

TDIU “Iqtisodiy statistika”

kafedrası katta o’qituvchisi

Annotasiya:

Maqolada iqtisodiyotni innovasion rivojlanish sharoitida aholi ish bilan bandligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga xos xususiyatlar, ishsizlik holatini hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar, fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularni kasb-hunarga o’qitish holatlari o’rganib chiqilgan va yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: islohotlar, malaka, ishsizlik, bandlik, ehtiyoj, potensial, demografik holat, xarajatlar, biznes loyiha, kredit, mehnat resurslari.

Аннотация:

В статье исследуются и освещаются социально-экономические особенности занятости населения в условиях инновационного развития экономики, меры, направленные на решение проблемы безработицы, привлечение граждан к предпринимательству, обучение их профессиям.

Ключевые слова: реформы, навыки, безработица, занятость, потребность, потенциал, демография, затраты, бизнес-проект, кредит, трудовые ресурсы.

Abstract:

In the article, the socio-economic features of employment of the population in the conditions of innovative development of the economy, the measures aimed at solving the unemployment situation, the cases of attracting citizens to entrepreneurship and training them in professions are studied and highlighted.

Key words: reforms, qualification, unemployment, employment, need, potential, demographic situation, costs, business project, credit, labor resources.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

Ta'kidlash joizki, iqtisodiyotni isloh qilish va diversifikatsiyalash, faol investitsiya siyosati yuritish hisobiga yetakchi tarmoqlarni modernizatsiyalash va texnologik jihatdan qayta jihozlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni rag'batlantirish asosida har yili minglab yangi ish o'rinlari yaratilmoqda, bu o'z navbatida o'ta dolzarb muammo hisoblangan aholi, avvalambor yoshlar bandligini ta'minlash imkonini bermoqda.

Yangi tashkil etilgan barqaror ish o'rinlari sonining mehnat bozori talablariga mos kelmasligi mehnat bozorida muvozanatlilikning buzilishiga, respublikamizning ayrim mintaqalarida ishsizlik darajasining oshib ketishiga, noqonuniy mehnat migratsiyasi va norasmiy bandlikning o'sishiga olib kelmoqda.

Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish, band bo'lmagan aholini, ayniqsa, yoshlarni ishga joylashtirish bo'yicha chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, mehnat huquqlarini himoya qilish va mehnat muhofazasini kuchaytirish, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha muvofiqlashtirilgan samarali ishlarni amalga oshirishda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro hokimiyati organlarining mas'uliyatini tubdan kuchaytirish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi etib qayta tashkil etilsin.
2. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va tuzilmalarining ustuvor vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

- mehnat bozoridagi haqiqiy holatni respublikamiz mintaqalari kesimida chuqur tahlil qilish asosida aholi bandligini ta'minlash bo'yicha hududiy va tarmoq dasturlarini ishlab chiqish va ularning bajarilishini muvofiqlashtirish, yangi ish o'rinlari tashkil etish bo'yicha davlat buyurtmalarini ishlab chiqish va aholining ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlari uchun ish joylari kvotasini belgilash bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- mehnat organlariga murojaat qilgan ishsizlarni ishga joylashtirishni ta'minlash, aholini jamoat ishlariga, birinchi navbatda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishga, yo'l va uy-joy kommunal infratuzilmasini qurish, ta'mirlash va rekonstruksiya qilishga, shaharlar va tumanlarni obodonlashtirishga,



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlarida ishtirok etishga jalb etish;

- ishga joylashishga muhtoj shaxslarni, ayniqsa, band bo'lmagan yoshlarni, imkoniyati cheklangan shaxslarni va ishsizlarni iqtisodiyotning hamda mehnat bozorining real talablaridan kelib chiqqan holda, kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bandlik sohasida davlat siyosatini amalga oshirishda yangicha yondashuvlarni joriy etish, shu jumladan, davlat va xususiy biznes o'rtasidagi hamkorlikka asoslangan holda mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish, ishsiz aholini, ayniqsa, yoshlarni ishga joylashtirishda samarali chora-tadbirlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini isloh qilish va diversifikatsiyalash, faol investitsiya siyosati yuritish hisobiga iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnologik jihatdan qayta jihozlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni rag'batlantirish asosida har yili minglab yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. Bu o'z navbatida o'ta dolzarb muammo hisoblangan aholi, avvalambor yoshlar bandligini ta'minlash imkonini bermoqda.

Mustaqillik yillarida aholi turmush darajasini oshirish, munosib ish o'rinlari bilan ta'minlash hamda kadrlar tayyorlash masalalariga katta e'tibor berilmoqda. Shu bilan birga, samarali iqtisodiy islohotlar hamda intellektual salohiyat bilan bog'liq bo'lgan sohalardagi bir qator ijobiy o'zgarishlar natijasida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishilmoqda.

Mehnat bozorida yoshlarga qaratilayotgan alohida e'tibor bois, jami aholiga nisbatan ish bilan ta'minlash ulushi yuqori bo'lmoqda. Ularga jamiyatda munosib o'rin topishiga ko'maklashish va tashabbus ko'rsatib mehnat qilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan yoshlar esa, barcha sohalarda o'z qobiliyatini namoyon etmoqda. Binobarin, mamlakat taqdiri uchun mas'uliyatni chuqur his etadigan, mustaqil va yangicha fikrlaydigan yosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish vazifasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

Mehnat bozoridagi vaziyatni xolisona baholash, mehnatga layoqatli aholi sonini xalqaro standartlarga muvofiq aniqlash hamda mehnat resurslari balansini ishlab chiqish tartibini shakllantirishda Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari hamda Mehnat vazirligining ish bilan ta'minlash masalalarini o'rganish natijalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Mehnat bozoridagi vaziyatni tahlil qilish va tadqiq etish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar bankini shakllantirish aholining ish bilan bandlik sohasida ilmiy ishlanmalar, yangi uslubiy yondashuvlar hamda ko'rsatkichlarning turli tizimlari to'g'risida axborot oqimini nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida "2021 yil 1 yanvardan talab yuqori bo'lgan ishchi kasblar bo'yicha fuqarolarning malaka darajasini tasdiqlash tizimini joriy etish, yoshlar forumidagi uchrashuvda yoshlar tadbirkorligi va bandligini ta'minlash uchun mablag' ajratish haqida, yoshlarning biznes loyihalarini kreditlagan holda ularni kasb-hunarga o'qitish uchun mablag' ajratilishini ta'kidlab o'tdi. Bu esa o'z navbatida innovasion rivojlanish davrida yoshlarga keng imkoniyatlar berilayotganligidan dalolat beradi.

Mamlakatda kichik biznes rivoji uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari samarali ishlayotganligi tufayli, aholining ishbilarmonlik qobiliyati kengayishi, yoshlarda tadbirkorlik tashabbusi ortishi kuzatilmoqda. Bu jihatlar o'z navbatida, istiqbolli taklif va tashabbuslarni o'z vaqtida rag'batlantirishga katta yo'l ochib bermoqda. Natijada, ish bilan band aholining aksariyat qismi aynan kichik biznes sohasida mehnat qilmoqda, tarmoqning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa ortmoqda. KBXT rivojiga keng yo'l ochib berilganligi aholi bandligining oshishi va daromadlari o'sishida muhim omil bo'lish bilan birga, iqtisodiyotni izchil rivojlantiruvchi, jamiyat barqarorligini ta'minlovchi kafolat vositalaridan biriga aylandi.

Respublikamizda vaqtincha ishsizlik mavjudligi sabablaridan biri - ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblikdir. Ya'ni, ish bilan band bo'lmagan aholining katta qismi malakasiz xodimlar va mehnat bozoriga birinchi marta chiqayotgan yoshlarni tashkil etmoqda. Aksincha, iqtisodiyot tarmoqlarida yuqori malakaga va ish tajribasiga ega bo'lgan kadrlarga talab ortib bormoqda.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

Fikrimizcha, O'zbekistonda ishsizlar ro'yxatdan o'tishi kerak bo'lgan aholi bandligiga ko'maklashish markazi tomonidan tegishli ma'lumotlar yig'ilishi maqbulroq ko'rinadi, chunki aynan ularga ishchi kuchi yuzasidan talab va taklifni tahlil qilish, respublikamizning barcha hududlarida bo'sh ish o'rinlarini hisobga olish, ish izlayotganlar uchun bo'sh ish o'rinlarini izlash, ishsizlik bo'yicha nafaqalarni to'lash kabi vazifalar yuklatilgan.

Iqtisodiy taraqqiyot va inson salohiyatini rivojlantirishda aholini ish bilan bandligi muhim omil hisoblanadi. Aholini ish bilan bandligini ta'minlash uning takror ishlab chiqarilishi uchun zarur shartdir. Chunki kishilarning turmush darajasi, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari uchun kadrlar tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ishga joylashtirish, ishsizlarni moddiy va psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun qilinadigan sarflar aholini ish bilan ta'minlanishiga bog'liqdir. Shuning uchun aholini ish bilan ta'minlashning ijtimoiy- iqtisodiy va tashkiliy jihatlarini tadqiq etish bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida alohida ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti (darslik). – T.: Mehnat. – 2009. -512 b.
2. Holmo'minov Sh.R., Arabov N.U. Mehnat bozori infratuzilmasi. O'quv qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2016. 150-155 b.
3. Костюнина Г.М. Социальная политика в области труда (опыт Республики Корея) // Труд за рубежом. 2000. №4. -с. 29-30.
4. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" 2020 yil 25 yanvar.
5. Рынок труда. Учебное пособие. Под общей редак. д.э.н., проф. Абдурахманова К.Х., д.э.н., проф. Одегова Ю.Г. – Т.: ТФ РЭА, 2009. – с. 384.
6. Тарасова Н. Трудовые отношения в условиях глобализации и технологической революции (опыт стран запада) // Общество и экономика. – М.: 2000. №1. - с. 67.
7. O'zbekiston Respublikasining Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risidagi qonuni



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

-
- (yangi taxriri). – Toshkent.: Sharq, 1998 y.
8. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar srtategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yil 7 fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli farmoni.
 9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va electron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ- 4699 son qarori.
 10. G‘ulomov S.S. Axborot tizimlari va texnologiyalari. – T.: Sharq, 2000. – 93 b.